

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18232490>

## KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI

*Abdulxalilova Saboxat Naimovna,*  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti,  
e-mail: [saboxatabduhalilova@gmail.com](mailto:saboxatabduhalilova@gmail.com)

*Hakimova Gavhar Rustam qizi,*  
Toshkent amaliy fanlar universiteti assistent-o'qituvchisi,  
e-mail: [hakimovagavhar9@gmail.com](mailto:hakimovagavhar9@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishning iqtisodiy ahamiyati hamda uni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari tahlil etilgan. Tadqiqotda xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, bank kreditlari, davlat kafolatlari, subsidiyalar va muqobil moliyalashtirish vositalarining roli o'rganilgan. Shuningdek, moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan muammolar, xususan axborot asimmetriyasi va kredit risklari tahlil qilinib, ularni kamaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari asosida esa kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini oshirish va uning mamlakat iqtisodiyotining o'sishdagi rolini kuchaytirishga qaratilgan amaliy ahamiyatga molik taklif hamda tavsiyalar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes subyektlari, xususiy tadbirkorlik, moliyalashtirish mexanizmlari, bank kreditlari, davlat kafolatlari, moliyaviy barqarorlik, kredit risklari, axborot asimmetriyasi, muqobil moliyalashtirish, moliyaviy infratuzilma, xorijiy tajriba, iqtisodiy o'sish.

### KIRISH

Jahon amaliyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini oshirish, ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda moliyalashtirish ko'lamini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. International Finance Corporation (IFC) hisobotlarida qayd etilishicha, dunyo bo'yicha mavjud 65 millionga yaqin kichik biznes subyektlarining qariyb 40 foizi har yili 5,2 trillion AQSh dollari miqdoridagi moliyalashtirilmagan ehtiyojga ega bo'lib, ushbu ko'rsatkich global miqyosda kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishning amaldagi darajasidan 1,4 barobarga yuqoridir. Shuningdek, global moliyaviy tafovutning eng katta ulushi Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasiga to'g'ri kelib, u jami 46 foizni tashkil etsa, Lotin Amerikasi va Karib havzasi mintaqasida mazkur ko'rsatkich 23 foizni, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida esa nisbatan past bo'lib, 15 foizni tashkil etadi. Kichik biznes subyektlarini bank kreditlari orqali o'z vaqtida moliyaviy resurslar bilan ta'minlash jarayonida hal etilishi zarur bo'lgan muammolarning saqlanib qolayotgani ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda kichik biznes subyektlari ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni samarali hal etish, yangi ish o'rinlarini yaratish, bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga tezkor moslashish hamda mulkdorlar qatlamini shakllantirish jarayonlarida muhim institutsional omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Aksariyat davlatlarda kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi tutgan o'rni, uning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va barqaror bozor munosabatlarini shakllantirishdagi roli alohida e'tiborga olinmoqda.

Hozirgi globallashuv va keskin iqtisodiy raqobat davrida kichik biznes mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi vosita sifatida maydonga chiqmoqda. Ular bandlik imkoniyatlarini yaratishga, shu orqali ishsizlik darajasini pasaytirishga sezilarli hissa qo'shmoqda. Bundan tashqari, ushbu korxonalar innovatsiya inkubatorlari bo'lib xizmat qiladi, doimiy ravishda yangi mahsulotlar va xizmatlarni joriy qiladi va shu bilan birga jamiyatlarda turmush darajasini oshiradi. O'zbekiston Respublikasi ham ushbu yo'nalishda tizimli islohotlar olib borib, kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. 2030-yilgacha Yangi O'zbekistonni rivojlantirishning taraqqiyot strategiyasida "... kichik va o'rta biznesning xalqaro bozorlarga chiqishiga imkoniyatlarni kengaytirish, mikro moliyalashtirishni rivojlantirish, innovatsiyalar va startaplarni qo'llab-quvvatlash" [4] vazifasi belgilab berilgan.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish va ularning rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash masalalariga bag'ishlangan ko'p qirrali ilmiy tadqiqotlar jahon miqyosidagi yetakchi ilmiy-tahliliy markazlar, nufuzli oliy ta'lim muassasalari hamda mazkur sohaga daxldor xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar tomonidan tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Nobel mukofati lauriyati J.E.Stiglitzning nazariyasida "axborot asimmetriyasi kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolardan biri hisoblanadi" [7]. Mazkur yondashuvga ko'ra, rivojlangan mamlakatlar amaliyotida ushbu muammo mikromoliyalashtirish institutlarini rivojlantirish, kredit skoring tizimlarini joriy etish hamda davlat ishtirokidagi moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlarini keng qo'llash orqali samarali tarzda bartaraf etilmoqda. Joseph Stiglitz xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilar ekan, kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish jarayoni davlat tomonidan amalga oshiriladigan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda bozor institutlarining o'zaro mutanosib va uyg'unlashgan faoliyati asosida samarali tarzda tashkil etilishini alohida ta'kidlaydi.

Allen Bergerning ilmiy tadqiqotlarida "kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish jarayonida munosabatlarga asoslangan bank xizmatlari (relationship lending) alohida metodologik ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi" [8]. Muallifning xulosalariga ko'ra, xorijiy amaliyotda tijorat banklarining kichik biznes subyektlari bilan uzoq muddatli va barqaror hamkorlikni shakllantirishi kredit risklarini pasaytirish, kreditlash tartib-taomillarini soddalashtirish hamda moliyalashtirish

ko‘lamini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shavkat Mustafakulov ilmiy tadqiqotlarida “kichik biznes va tadbirkorlikni moliyalashtirishda xorijiy tajribaning muhim ustun jihati sifatida davlat tomonidan moliyaviy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash hamda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalashga xizmat qiluvchi infratuzilma va moliya bozorlarining shakllantirilishini alohida ta‘kidlaydi” [9]. Uning fikriga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlar amaliyotida kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish jarayoni faqat bank kreditlari bilan cheklanib qolmay, balki lizing, faktoring, venchur moliyalashtirish hamda grant mexanizmlaridan kompleks va samarali foydalanish asosida amalga oshiriladi. Olimning ta‘kidlashicha, mazkur tajribani milliy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizning iqtisodchi olimlaridan yana biri U.Fattoxov ilmiy tadqiqotlarida “kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish jarayonida xorijiy amaliyotda keng qo‘llaniladigan risklarni taqsimlash mexanizmlari hamda kreditlarni kafolatlash tizimlari muhim institutsional vositalar sifatida alohida ahamiyat kasb etishini ta‘kidlaydi” [10]. Olimning ilmiy qarashlariga ko‘ra, davlat va xususiy sektor hamkorligi tamoyillariga asoslangan kafolat jamg‘armalarining faoliyati kichik biznes subyektlarining kreditga layoqatlilik darajasini oshirish, tijorat banklari uchun moliyaviy risklarni kamaytirish hamda moliyalashtirish ko‘lamining kengayishi uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, A.Abdug‘aniyevning ilmiy asarlarida “kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish samaradorligi bank kreditlari, davlat kafolatlari hamda imtiyozli moliyalashtirish mexanizmlarining o‘zaro uyg‘un va muvofiqlashtirilgan tarzda qo‘llanilishiga bevosita bog‘liq ekani asoslab beriladi” [11]. Olimning ilmiy nazariyalariga ko‘ra, xorijiy amaliyotda keng qo‘llaniladigan kredit jamg‘armalari hamda subsidiyalangan foiz stavkalari kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi, shuningdek kreditlash jarayonida yuzaga keladigan risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

## METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning asosiy natijalariga erishish maqsadida tadqiqot metodologiyasi doirasida qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi. Mazkur usul bir yoki bir nechta hodisa va jarayonlarni tizimli ravishda o‘zaro taqqoslash orqali ular o‘rtasidagi umumiylik va farqli jihatlarni aniqlashga xizmat qiladi. Qiyosiy tahlil natijalari muammoni aniqroq belgilash, shuningdek mazkur yo‘nalishdagi mavjud bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirishga imkon beruvchi axborotlarni shakllantirishga zamin yaratadi.

Tadqiqot jarayonida ma‘lumotlar bazasini shakllantirish uchun asosan ikkilamchi ma‘lumotlardan foydalanildi. Xususan, mamlakatimiz iqtisodiyotining so‘nggi o‘n yillikdagi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini aks ettiruvchi statistik ma‘lumotlar tadqiqot uchun empirik asos sifatida tanlab olindi. Shu bilan birga, ma‘lumotlar bazasini boyitish jarayonida xorijiy olimlar tomonidan amalga oshirilgan

ilmiy tadqiqotlar natijalaridan ham keng foydalanildi. Tadqiqot uchun zarur axborotlarni shakllantirishda turli xalqaro va milliy ma'lumotlar bazalari, shuningdek mamlakatimizdagi tegishli davlat idoralarning rasmiy statistik manbalariga tayanildi. Jumladan, ma'lumotlar bazasini shakllantirishda World Bank tomonidan ishlab chiqilgan Jahon rivojlanish indikatorlari (World Development Indicators) tizimi muhim axborot manbai sifatida qo'llanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR


Xorijiy mamlakatlar amaliyotida kichik biznes subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mukammal va tizimli mexanizmlar shakllantirilgan bo'lib, mazkur tizim iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida jahon moliyaviy-iqtisodiy muhitining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu islohotlar natijasida, umumiy hisob-kitoblarga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari jami korxonalar sonining 90 foizdan ortig'ini tashkil etib, mehnatga layoqatli aholining 50 foizdan ziyodini ish bilan ta'minlashda yetakchi rol o'ynamoqda. Shu boisdan, mamlakatimizda tadbirkorlikning turli mulkchilik shakllariga keng imkoniyatlar yaratib berilgan bo'lib, buning qonuniy asoslari ham yaxshi shakllantirilgan. Fuqarolarning o'z mulkiga o'zi egalik qilishi va tadbirkorlikni rivojlantirishi bilan bog'liq huquqlari davlat tomonidan kafolatlanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasida “Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi” [1] deb yozib qo'yilgan. Konstitutsiyada kafolatlangan mana shu huquq mamlakatimiz aholisining iqtisodiy faol qismini, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga, o'z xoxishi bilan tavakkalchilik qilib, toovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va ularni ayirboshlash orqali insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga, ularning tarzini yanada boyitisha imkoniyat yaratadi.

Mamlakatimiz fuqarolarining tadbirkorlik bilan bog'liq huquqlari va tadbirkorlik tushunchasi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-mayda qabul qilingan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi Qonunda bayon qilingan bo'lib, uning 3-moddasida tadbirkorlik faoliyati “tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir” [2] deb izohlanadi.

Bizning fikrimizcha, kichik biznes – bu ma'lum tanlangan yo'nalish bo'yicha bozor talabini inobatga olgan holda o'z tavakkalchiligi ostida ishlarni tashkil etishdir. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 24-moddasida esa “fuqaro yakka tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga haqlidir” [3] deb qayd etilgan.

Kichik biznesni tashkil etish sifat va miqdor ko'rsatkichlarini har tomonlama

tahlil qilishni taqozo etadi. Sifat ko‘rsatkichlari boshqaruv tuzilmalarining soddaligi va samaradorligi, shuningdek, biznesning o‘z tarmog‘idagi bozor ulushi kabi omillarni o‘z ichiga oladi. Ushbu elementlar kompaniyaning operatsion samaradorligi va raqobatbardosh joylashuvi haqida tushuncha beradi. Miqdoriy tomondan, hal qiluvchi ko‘rsatkichlar xodimlar soni, asosiy vositalarning narxi va umumiy sotish hajmini o‘z ichiga oladi, ular birgalikda kompaniya miqyosi va iqtisodiy mahsulotining aniq o‘lchovini ta‘minlaydi. Shuni ta‘kidlash kerakki, kichik korxonalar ta‘rifi mintaqaga qarab farq qiladi, xodimlarning chegaralari turli darajalarda o‘rnatiladi: Yaponiya va G‘arbiy Evropada 300 tagacha, AQSh va Italiyada esa 500 tagacha. Bu chegaralar mintaqaviy iqtisodiy tuzilmalar va tartibga solish muhitini aks ettiradi. O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarining tasniflanishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini xalqaro tasniflash tizimiga o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 275-sonli Qarori bilan tartibga solinadi va faqatgina bitta “Xodimlar soni” mezonini o‘z ichiga oladi (1-rasmga qarang).



**1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarining ifodalanishi [6]**

Kichik biznes subyektlarini aniqlash mezonlari butun dunyo bo‘ylab bir xil emas; aksincha, har bir mamlakat o‘ziga xos iqtisodiy va tartibga solish kontekstiga o‘z yondashuvini moslashtirgani uchun ular sezilarli darajada farqlanadi. Mezonlarning bunday xilma-xilligi kichik biznes sektorini mustahkamlashga qaratilgan qator mexanizmlar bilan birga keladi. Masalan, Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (EKO) “yagona darcha” tamoyilini joriy etdi, bu firmalarga barcha zarur hujjatlarni yagona kirish punkti orqali taqdim etish imkonini berish orqali biznes operatsiyalarini osonlashtirishga mo‘ljallangan soddalashtirilgan jarayon. Ushbu yondashuv byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va biznesni ro‘yxatga olish va faoliyat

yuritishda samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Fransiyada shunga o‘xshash maqsad tadbirkorlar uchun ma’muriy tartib-qoidalarni boshqarish uchun birlashtirilgan platforma bo‘lib xizmat qiluvchi Biznes rasmiylashtirish markazlarini tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Xitoy, Bolgariya, Kolumbiya, BAA, Moldova va Xorvatiyada kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash uchun har bir mamlakatning o‘ziga xos huquqiy va iqtisodiy manzarasini aks ettiruvchi turli strategiyalar qo‘llaniladi. Ushbu sa’y-harakatlar tobora ko‘proq zarur ruxsatnomalar va litsenziyalarni olish uchun talab qilinadigan murakkablik va vaqtni qisqartirishga qaratilgan.

Bundan tashqari, ushbu jarayonlarni yaxshilash uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish tendensiyasi kuchaymoqda. Hujjatlarni elektron shaklda taqdim etish va raqamli platformalarni birlashtirish operatsiyalarni yanada soddalashtirish, qog‘ozbozlikni qisqartirish va me’yoriy hujjatlar talablariga rioya qilishni osonlashtirish, shu orqali kichik biznesning rivojlanishi uchun yanada qulay muhit yaratishga qaratilgan [12]. Hujjatlarni topshirishning “yagona aloqa nuqtasi” tizimini yo‘lga qo‘yish bilan birga litsenziyalash tartib-qoidalarining soddalashtirilgani turli mamlakatlarda investitsiya landshaftini sezilarli darajada yaxshiladi. Gollandiya misolida keltirilgan bu yondashuv byurokratik jarayonlar bilan an’anaviy bog‘langan murakkablik va vaqtni qisqartirib, samaradorlik modeli bo‘lib xizmat qiladi. Ma’muriy to‘siqlarni minimallashtirish orqali korxonalar resurslarni yanada samaraliroq taqsimlashlari va shu bilan operatsion xarajatlarni kamaytirishlari mumkin. Bunday fiskal ehtiyotkorlik nafaqat investitsiya muhitini yanada jozibador qiladi, balki yanada dinamik iqtisodiy muhitga ham hissa qo‘shadi. Bundan tashqari, protsessual ishdan bo‘shatishning qisqarishi natijasida har yili 2 milliard AQSH dollarini tashkil etgan holda davlat uchun sezilarli moliyaviy tejamkorlik yaratildi. Bu iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish va davlat sektori samaradorligini oshirish uchun hukumat innovatsiyalari salohiyatini ta’kidlaydi [17].

Hindistonda keyingi yillarda bu tartib-tamoyillarning qisqartirilishi natijasida yalpi ichki mahsulot keskin ko‘paygan – bu borada ko‘rsatkich 3,5 foizdan ko‘tarilib, 6-7 foizga yetgan [18]. Bu borada Janubiy Koreya tajribasi, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Bu mamlakatda keyingi o‘n yil mobaynida 11000dan ortiq normativ-huquqiy hujjat inventarizatsiya qilingan va ruhsat berish tartib-tamoyillari keskin qisqartirilgan, natijada yalpi ichki mahsulotda kichik biznes subyektlarining ulushi keskin oshgan.

Moliyaviy xavfsizlik, shubhasiz, kichik biznes muvaffaqiyatida hal qiluvchi rol o‘ynaydi; ammo bu ularning farovonligining yagona omili emas. Samarali boshqaruv, innovatsiyalar va bozorga moslashish kabi boshqa elementlar ham biznes muvaffaqiyatiga sezilarli hissa qo‘shadi. Shundan kelib chiqqan holda, tijorat banklari tomonidan kichik korxonalariga kredit berishni osonlashtirishga qaratilgan ixtisoslashtirilgan asoslarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu tizimlar ideal tarzda vositachilik xizmatlari orqali ishlaydi va shu bilan kichik biznes uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini oshiradi. Kreditlarni qayta hisoblashda diskont dasturlari o‘z resurslariga bo‘lgan ortiqcha yuk ta’sirida kredit

portfelini o‘shiga olib kelishi mumkin.

Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishda tijorat banklaridan tashqari byudjet va nobyudjet mablag‘laridan foydalanish mumkin. G‘arb mamlakatlari korporatsiyalar ko‘pincha kichik firmalar orqasida turadi. Yangi texnologiyalarni loyihalash va konstruktiv tizimini ishlab chiqishda eksperimental va konstruktiv tavakkalchilikni o‘z zimmasiga olgan venchur asosiy rol o‘ynaydi.

Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish amaliyotida keng tarqalgan usullardan yana biri byudjetdan tashqari manbalar hisoblangan qo‘shma investitsiyalardir. Masalan, Germaniyda banklar va sug‘urta tashkilotlari tomonidan kichik biznes kapitalida ishtirok etadigan maxsus firmalar tuziladi. Qo‘shma moliyalashtirish esa shakllantirilgan shartnomalar orqali tartibga solinadi. Tomonlar o‘rtasidagi kelishuv shartlariga muvofiq bajarilgan ishlarni moliyalashtirish qisman avans yoki oldindan to‘lash orqali amalga oshiriladi.

“Grameen Bank” kreditlashining asosiy qoidasi imkon qadar barqarorlikdan voz kechmasdan foiz stavkasini bozor darajasida yaqin darajada ushlab turishdir. Foiz stavkasini belgilashda bozor foiz stavkalarida berilgan pul mablag‘larining nisbati emas, balki mos yozuvlar nisbati sifatida qabul qilinadi. “Grameen Bank”ning kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy muammolardan biri – bu resurslarning yetishmasligi muammosi edi. Ushbu muammoni hal qilish maqsadida “Grameen Bank” o‘z filiallarining resurslar jalb qilish va kreditlar berishdagi mustaqilligini oshirdi. Yangi ochilgan filialga Bosh ofis tomonidan 1 yilgacha muddatga moliyaviy yordam beriladi. Filial faoliyat yuritayotganiga 1 yil to‘lgandan so‘ng o‘z xarajatlarini o‘zining daromadlari bilan to‘liq qoplash imkoniga ega bo‘lishi lozim. Ushbu tajribani mamlakatimiz bank tizimida qo‘llash yetarli samara beradi deb o‘ylaymiz. Xususan, bu borada mamlakatimiz Prezidenti tomonidan 2018-yil 23-martdagi “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3620-sonli Qarorida filiallarning tarmog‘ini kengaytirish borasida yetarlicha muammolarimiz mavjudligi va kelgusida ilg‘or xorij tajribasi asosida takomillashtirishimiz ekanligini ko‘rsatadi [5]

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarning kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish faoliyati bilan tanishib chiqamiz. Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishda dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biri Germaniya tajribasining amaliy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi;

1. kreditlar uzoq muddatli bo‘lib, kichik biznes subyektlarining investitsion xarajatlarini moliyalashtirish maqsadida beriladi;

2. kreditlarning asosiy qarz summasi va foizining ma‘lum qismi davlat mablag‘lari hisobidan qoplanadi;

3. ikki yillik muddatga imtiyozli davr bilan berilishidir.

Kichik biznes subyektlariga nisbatan soliq imtiyozlarining qo‘llanishi ular faoliyatini bilvosita subsidiyalash hisoblanadi [13]. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida soliq imtiyozlaridan keng ko‘lamda foydalanilayotganligi bilvosita subsidiyalashga e‘tiborning kuchli ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Germaniya kichik biznes subyektlariga nisbatan 180dan ortiq turdagi soliq imtiyozlari qo‘llanadi.

Germaniya amaliyotida kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan maqsadli davlat dasturlari shakllantirilgan bo‘lib, ushbu dasturlar ularning o‘z kapitali hajmini oshirish, ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish hamda innovatsion loyihalarni amalga oshirish kabi strategik vazifalarni hal etishga xizmat qiladi. Mazkur dasturlar doirasida kichik biznes subyektlariga ajratiladigan imtiyozli kreditlar hajmi 1,0 million yevrogacha yetib, ularning qaytarish muddati 3 yildan 10 yilgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Shuningdek, davlat tomonidan taqdim etiladigan dotatsiyalar miqdori kredit summasining 3 foizidan 10 foizigacha bo‘lgan oraliqda belgilanib, moliyalashtirish shartlarining yanada qulaylashuviga zamin yaratadi.

Germaniya qonunlariga ko‘ra, kichik biznes faoliyatini tashkil etishda nemislar va xorijliklar o‘rtasida hech qanaqa tafovut mavjud emas va daromadlarni qaytarishga ham hech qanday to‘siqlar yo‘q. Biroq, Yevropa Ittifoqi tashqarisidan kelgan fuqarolar Germanida qonuniy shaklda yashash va ishlash uchun viza yoki ish ruxsatiga ega bo‘lishi kerak.

### 1-jadval

#### Germaniyada banklar tomonidan kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish uchun berilgan kreditlar (mlrd. yevro) [14]

Kreditlar muddati	2022	2023	2024
Germaniya banklari tomonidan berilgan jami kreditlar summasi	1347,5	1403,1	1476,9
Shulardan:			
Qisqa muddatli kreditlar	174,3	180,8	201,9
O‘rta muddatli kreditlar	186,4	193,1	199,4
Uzoq muddatli kreditlar	986,8	1029,2	1075,6

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib, turibdiki, Germaniya davlatining banklari tomonidan kichik biznesni rivojlantirish uchun berilayotgan kreditlar salmog‘i yildan yilga oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Eng e’tiborli jihati shundaki, kichik biznes subyektlari uchun barqaror uzoq muddatli kreditlar juda katta ahamiyat kasb etadi.

Ko‘plab hudud va shaharlarda kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishda imtiyozli kreditlash va maqsadli jamg‘armalar faoliyatini yo‘lga qo‘yilganligi ushbu jarayonni osonlashtiradi. Kichik biznes subyektlari faoliyati asosan ichki bozorga yo‘naltirilganligi sababli ko‘plab moliyaviy muammolarni mahalliy hokimiyat organlari ishtirokida hal etiladi [15]. Kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan moliyaviy resurslarni hududiy manbalar hisobidan toppish zarur. Hududlarda kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni tashkil etishda kredit kafillari sifatida faoliyat yurituvchi o‘zaro kredit jamiyatlari va savso-sanoat palatasi asosiy rol o‘ynaydi. Ularga maqsadli kreditlar berish, birinchi navbatda, tovar komissiyalari, buxgalteriya hisobi va veksellarni ta’minlashdan tashqari barcha qisqa muddatli bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqi beriladi. Shuningdek, nomlari



ko'rsatilgan jamoat tuzilmalari tijorat banklari yoki shahar jamg'armalariga alohida taadbirkorlarning moliyaviy ahvoli tegishli tarzda o'rganilgandan keyin ularni kreditlash bo'yicha o'z tavsiyalarini berishi lozim [16]. Bunday hollarda kreditlar garovsiz beriladi.

O'z-o'zini moliyalashtirish bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes subyektlarining muvaffaqiyatli xo'jalik faoliyatining asosiy shartidir. Bu tamoyil mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini to'liq qoplash va tadbirkorning ishlab chiqarish-texnik bazasini kengaytirishga asoslandi, bu har bir kichik biznes subyekti o'zining joriy va kapital xarajatlarini o'z manbalari hisobidan qoplashini bildiradi. Mablag'lar vaqtinchalik yetishmovchilik bo'lsa, ularga bo'lgan ehtiyoj qisqa muddatli bank kreditlari va tijorat kreditlari hisobidan ta'minlanishi mumkin.

## XULOSA

Sohani izchil rivojlantirishni ta'minlash maqsadida o'zaro bog'liq va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, moliyalashtirishning turli manbalarini yagona, o'zaro uyg'un va samarali faoliyat yurituvchi tizim sifatida shakllantirish zarur. Shu bilan birga, moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish orqali tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslardan oqilona va samarali foydalanish bo'yicha ko'nikmalarini mustahkamlash, shuningdek startup va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus imtiyozli moliyaviy dasturlarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar umumiy hajmida kichik biznes subyektlariga yo'naltirilgan kreditlarning yuqori va barqaror ulushini ta'minlash maqsadida bir qator ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim. Xususan, birinchidan, kichik biznes subyektlarini kreditlash jarayonida yuzaga keladigan kredit va devalvatsiya risklarini baholash hamda boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi; ikkinchidan, tijorat banklari resurslarining umumiy tarkibida barqaror moliyaviy resurslar ulushining yetarli va barqaror darajada shakllanishiga erishish zarur; uchinchidan, kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi bilan ularni moliyalashtirish uchun jalb etilgan resurslar o'rtasida miqdoriy mutanosiblikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. 2023. 81 b. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. O'zbekiston Respublikasining 02.05.2012 yildagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi O'RQ-328-son Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 21.03.2019 y., 03/19/531/2/2799-son ilova.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-sonli Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.03.2018 yildagi “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3620-

son Qarori.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.08.2016 yildagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini xalqaro tasniflash tizimiga o'tish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 275-son Qarori.

7. Stiglitz, J. E., & Weiss, A. (1981). Credit Rationing in Markets with Imperfect Information. *The American Economic Review*, 71(3), 393–410. <http://www.jstor.org/stable/1802787>

8. Allen N. Berger, Gregory F. Udell, The economics of small business finance: The roles of private equity and debt markets in the financial growth cycle, *Journal of Banking & Finance*, Volume 22, Issues 6–8, 1998, Pages 613-673, ISSN 0378-4266, [https://doi.org/10.1016/S0378-4266\(98\)00038-7](https://doi.org/10.1016/S0378-4266(98)00038-7)

9. Mustafakulov Sh.X. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning xorijiy tajribasi // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – Toshkent, 2019. – №4. – B. 45–52.

10. Fattoxov, Ulug'bek. "Kichik Va O'rta Biznes Subyektlarini Kreditlashda Aholining Moliyaviy Savodxonligini Oshirish." *Nashrlar*, vol. 4, no. 1, 25 Mar. 2025, pp. 288-290, doi:[10.60078/2025-vol4-iss1-pp288-290](https://doi.org/10.60078/2025-vol4-iss1-pp288-290).

11. Abdug'aniyev A. Kichik biznes va tadbirkorlikni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. – 180 b.

12. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar. Maqolalar to'plami. – Toshkent, YUMOM, 2016. – 140 b.

13. Ulashov, A. (2023). The Main Areas of Development of Small Business and Private Entrepreneurship in Ensuring Economic Activity. *European Journal of Business Startups and Open Society*, 3(6), 23-29.

14. Gather W.B. A conceptual framework for describing the phenomenon of new venture creation *Academy of Management Review*, 10 (A), pp. 696-706.

15. Zamira Kaxorova. (2025). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish usullari. «Yashil Iqtisodiyot Va Taraqqiyot» *Jurnali*, 3(4), 13–16. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15280548>.

16. Ulashov, A. R. (2024). Ways to increase investment activity of enterprises in Uzbekistan.

17. [www.worldbank.uz](http://www.worldbank.uz) internet sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi  
[www.msme.gov.in](http://www.msme.gov.in) internet sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.